

“FONETIKA” BO’LIMINING O’QITILISHI

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali
Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili 3- bosqich talabasi*

Xaitboyeva Muazzamxon Mansurbek qizi

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali mustaqil
tadqiqotchisi*

Djakbarova Mahliyo

Annatsiya: maqolada fonetikani o’qitish orqali o’quvchilarning adabiy talaffuzini shakllantirish, imloviy savodxonlik, mustaqil fikrlash va uni keng ommaga ayta olishkabi fikrlar bayon etilgan. Ona tili darsliklarida fonetikaning o’rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: fonetika, tovush, talaffuz, imloviy savodxonlik, anketa, innovatsiya, nutq.

Abstract: *the article describes the formation of students' literary pronunciation, orthographic literacy, independent thinking and the ability to speak it to the general public by teaching phonetics. The role of phonetics in native language textbooks is considered.*

Key words: *phonetics, sound, pronunciation, orthographic literacy, questionnaire, innovation, speech.*

Аннотация: *в статье описано формирование у учащихся литературного произношения, орфографической грамотности, самостоятельного мышления и умения доносить его до широкой публики путем обучения фонетике. Рассмотрена роль фонетики в учебниках родного языка.*

Ключевые слова: *фонетика, звук, произношение, орфографическая грамотность, анкета, новация, речь.*

Fonetika - tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va akustik xususiyatlarini, bo‘g‘in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma’noli birliklarning yozilish qoidalarini ham qo‘shib, uning o‘rganish obyektni yanada kengaytiradilar. O‘zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari (ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv) va funksional tomonlari va ohang (bo‘g‘in, sintagma, urg‘u va boshqalar) o‘rganiladi. Ushbu maqolada, fonetika bo‘limining o‘qitishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: fonetika, tovush, talaffuz, imloviy savodxonlik, anketa, innovatsiya, nutq.

Ona tili ta'limiga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi zarur.

Ona tili o'qitishni foydali maqsadlarga bo'ysundirish, har bir o'rganiladigan grammatik tushuncha, ma'lumot, ta'rif va qoidalarining og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan yana bir muhim talab o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, til sathlarini o'qitishda duch kelinadigan asosiy muammolar: to'g'ri talaffuz, imloviy savodxonlik, zarur so'z boyligi, til vositalaridan unumli foydalanish malakasi va albatta, mustaqil yoki ijodiy fikrlash ko'nikmalaridir. Sanab o'tilganlarning deyarli hammasi bilan o'quvchilarni qurollantirish, asosan, tilning fonetika bo'limi zimmasidadir. Dastlabki kuzatishlar mazkur bo'limning o'rta maktablarda o'qitilishi kutilgan natijalarni bermayotganligini ko'rsatmoqda. Buning sababi bilan qiziqqanimizda biri o'qituvchi, ikkinchisi fan bo'yicha darsliklardan o'rin olgan ayrim o'quv materiallari bo'lib chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, boshqa bo'limlarga qaraganda fonetika bo'limi o'quvchilarda zerikish uyg'otmoqda. Buni o'qituvchilar bilan bo'lgan suhbatlar va o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov-anketalar tasdiqlaydi. Umumta'lim maktablarida dars berayotgan aksariyat ona tili o'qituvchilari, afsuski, bugungi ona tili ta'limi maqsadi nimaligini, xususan, fonetika o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima ekanligini, davlat va jamiyatning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatib turibdi. Tan olish kerakki, tadrisan va mazmunan yangi, zamon ruhiga mos darslik, qo'llanmalar chop etilib, amaliyotda o'z samarasini bermoqda. Biroq yagona darslik bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Ba'zan darsliklarda uchraydigan kamchiliklarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan fonetika mavzusini o'qitishda darslikda berilgan o'quv materiallari zarur ko'nikma va malakalarni o'quvchiga berishda yetarli bo'lmayotgani kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Birgina talaffuz masalasini oldigan bo'lsak, Respublikamizning turli hududlari bilan bog'liq turli tovushlarning talaffuzida muammolar uchraydiki, uni bartaraf qilish uchun darslikdagi ikkita yoki uchta mashq kamlik qiladi.

Bu borada davlatimiz Prezidenti til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmashimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zi rasmiy muoqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishini, bu masalaning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini qat'iy ta'kidlaydilar. Mazkur masalaning yechimi ham albatta, maktab bilan, ona tili, xususan fonetika o'qitish bilan bevosita bog'liqdir.

Fonetika o'qitishni davlat va jamiyat, qolaversa, zamon talabi darajasiga ko'tarish uchun, avvalo, darslik va qo'llanmalarining mazmun mundarijasini, ulardagi o'quv materiallarini tahlil qilib, bo'sh o'rinlarini to'ldirib, ona tili darsliklari tarixini o'rganish asnosida to'plangan boy tajribalarga asoslanib, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etgan asl darsliklar avlodini yaratish zarur.

Bugungi kunda yurtimizda tilni asrash, uni takomillashtirish va o'qitish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga ta'limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanilyapti va yangilari yaratilmoqda. Har qanday tilning asosini uning tovushlar tizimi ya'ni fonetikasi tashkil qiladi. Xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda fonetikaga, xususan, talaffuzga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida fonetikaga oid mashqlardan unumli foydalaniladi. Darsliklardagi mashq turlari o'quvchida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarning til o'qitish metodikasida gapirish (speaking), yozish (writing) kabi mashg'ulotlar, asosan, mashqqa tayanadi, mashq va topshiriq aniq farqlanadi, o'z o'rnida ishlatiladi. Shu sababli ularning til o'rganish kompetentligi yuqoridir. Shuningdek, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlari orqali dunyoning ko'plab davlatlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi aniqlanmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga turli pedagogic texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Biroq ona tili ta'limida shunday mavzular bo'ladiki, ularni o'qitishda didaktik o'yinlardan ko'ra amaliy ishlash orqali kerakli natijalarga erishish mumkin.

Aytish joizki, talaffuzning imloga va aksincha yozuvning og'zaki nutqqa ta'siribo'lishi tabiiy. XXI asrda texnika qanchalik rivojlanishiga qaramasdan, baribir, yozma nutq o'z o'rnini yo'qotgani yo'q. Shu o'rinda tan olishimiz kerak, o'quvchilar nutqida imloviy xatolar ko'plab uchrab kelmoqda va bu albatta fonetikaning o'qitilishi va talaffuzi bilan bogliq. Shu maqsadda men Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi maktablarga tashrif buyurdim va u yerga o'quvchilarning fonetik bilimlarini tekshirib ko'rish uchun anketa tayyorlab bordim. Djakbarova Mahliyo rahbarligi ostidagi 5- sinf o'quvchilaridan anketa so'rovnomasini o'tkazdim.

So'rovnomada 20 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etishdi

Men tayyorlagan anketa so'rovnomasi maktab darsligidan kelib chiqqan

holda ochiq va yopiq testlardan iborat edi. Anketa so'rovnomasida fonetika, tovush va uning xususiyatlari, innovatsion texnologiyalar, boshlang'ich sinf ona tili darsligidagi fonetik jarayonlar haqidagi savollardan iborat. Masalan:

Qaysi qatordagi so'zlarda nuqtalar o'rniga a harfi qo'yilishi lozim?

- a) z...mon, h...mon.
- b) h...li, h...zir.
- c) k...mil, k...mol.
- d) q...drdon, z...lim.

Javob: zamon, hamon.

Ushbu test o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini qanchalik rivojlanganligini aniqlash maqsadida tuzilgan.

Tovush va harfga oid xususiyatlar berilgan . Siz ularni xususiyatlariga ko'ra ajrating? Talaffuz qilamiz, eshitamiz, ko'ramiz, o'qiyamiz, yozamiz.

Javob: tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz; harfni ko'ramiz, o'qiyamiz, yozamiz.

Ushbu so'rovnoma orqali o'quvchilarning fonetikni qay darajada bilishlari va uni yanada chuqurroq o'rganishni xohlayotganliklariga ishonch hosil qildim.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda maktab darsliklariga ko'proq e'tibor berishimiz va ona tili darslarida o'quvchiga fonetika haqida ma'lumot berish kerak . Har bir so'zni to'g'ri va aniq talaffuz qilishi va bexato yoza olishi uchun avvalo o'quvchilarda fonetik savodxonlikni oshirishimiz zarur. Aslida ona tili darslarining asosiy maqsadi bo'lgan o'quvchilarda nutqiy malakalarning shakllanishiga zamin yaratuvchi fonetika, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya bo'limlarini o'qitishda mashqlardan muntazam foydalanish, qolgan bo'limlarni esa, topshiriqlar asosida o'qitish samaraliroq natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroev G'.H. Fonetikaning umumta'lim maktablarida o'qitilishiga doir ayrim mulohazalar // . –Toshkent, TDPU, 2018. –B. 485-487.
2. Mirzayev F. Fonetika o'qitishda xalq maqollaridan foydalanish ta'lim
3. samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida 2010. – B. 116-118.